

**BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLAR AKADEMIYASI

YUNUSOV BAXTIYOR ABDULLAYEVICH

**GREK YONG‘OG‘I VA BODOMNING QOBIG‘INI CHAQISH UCHUN
ENERGIYATEJAMKOR KOMBINATSILASHGAN QURILMANI ISHLAB
CHIQISH**

**02.00.16 – Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va
apparatlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Yunusov Baxtiyor Abdullayevich

Grek yong‘og‘i va bodomning qobig‘ini chaqish uchun
energiyatejamkor kombinatsiyalashgan qurilmani ishlab chiqish.....3

Юнусов Бахтиёр Абдуллаевич

Разработка энергосберегающего комбинированного
устройства для разламывания скорлупы греческого
ореха и миндаля21

Yunusov Bakhtiyor Abdullayevich

Development of energy-saving combined installation for peeling greek
walnut and almond shells.....41

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список о опубликованных работ
List of published works.....45

**BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLAR AKADEMIYASI

YUNUSOV BAXTIYOR ABDULLAYEVICH

**GREK YONG‘OG‘I VA BODOMNING QOBIG‘INI CHAQISH UCHUN
ENERGIYATEJAMKOR KOMBINATSILASHGAN QURILMANI ISHLAB
CHIQISH**

**02.00.16 – Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va
apparatlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/T 3451 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bmti.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Matmurodov Farxod Matqurbonovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Barakayev Nusratillo Rajabovich
texnika fanlari doktori, professor

G'ofurov Karim Hakimovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muxandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «25»iyun soat 10⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 2001117, Buxoro shahar Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99865)223-78-84, faks: (99865)223-78-84; e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muxandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (467 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 2001117, Buxoro shahar Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99865)223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «08» iyun kuni tarqatildi.

(2024yil «12» martdagi №6- raqamli reestr bayonnomasi).



S.F. Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

R.R. Hayitov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., kat.il.xod.

I.B. Isabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda inson qo‘l mehnatini kamaytirish, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va qayta ishlashga qaratilgan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish jadal rivojlanib bormoqda. Bu borada intensiv yong‘oq, bodom, o‘rik, shaftoli va boshqa turdagi danagli mevalar bog‘larini barpo etish, ushbu mevalar danaklarini qayta ishalash uchun resurstejamkor texnika va texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va qayta ishlash, yong‘oq, bodom va o‘rik danagi qobig‘ini chaqish, mag‘zini ajratish bo‘yicha texnologik uskunalarning samaradorligini oshirish va chaqish uskunalarini konstruksiyasini takomillashtirish maqsadida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga mos ravishda yuqori samarali kombinatsiyalashgan chaqish uskunalarini konstruksiyasini takomillashtirish, amalga oshirilayotgan jarayonning jadalligini oshirish va energiya sarfini kamaytirish, yangi texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va sifatini oshirish hamda uskunalarining energiya sarfini kamaytirish uchun kombinatsiyalashgan chaqish qurilmalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy, samaradorligi yuqori, energiya tejamkor va kam xarajatli uskunalarini, shu jumladan, energiyatejamkor kombinatsiyalashgan chaqish uskunalarini joriy qilish bo‘yicha ilmiy natijalariga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “...iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish”¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Shunga ko‘ra yuqori samarali energiya tejamkor kombinatsiyalashgan chaqish uskunalarini yaratish, uskunalarining barqaror ishlash maydonini kengaytirishga yo‘naltirilgan ilmiy va amaliy izlanishlar dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF- 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 06-iyuldagi PQ-307-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika ilm-fan va

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

texnologiyalar taraqqiyotining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz va xorijiy davlatlar tadqiqotchilari tomonidan yong‘oq, bodom, o‘rik danagi, shaftoli danagi, funduk yong‘og‘ini chaqib, mag‘izini ajratib olish qurilmalari hamda ularning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha S.V.Nevzorov, M.F.Yamaletdinova, Robert Lemos, M.A.Koyuncu, T.Liang, M.Ndukwu, S.Gharibzahedi, S.Z.Hussain, S.G.Zhao, A. Mokhtari Nahal, A.Ghafari, S.Ojolo, Cao Chengmao, Faroogh Sharifian, N.V.Bishov, Yu.I.Suxorukix, F.Boomer, V.K.Petrov, B.Hasanov, A.Abdurasulov, D.To‘layev, X.Turkmenov, A.Xurramov, I.Ashirbekov, D. Alijanov, O. Mirzayev va boshqa olimlar izlanishlar olib borganlar.

Ushbu olimlar tomonidan meva danaklarini chaqishning jarayonini energiya va resurstejamkor usullari taklif qilingan. Bundan tashqari meva danaklarini chaqish jarayoning optimal rejimlari nazariy va amaliy tomonlari o‘rganilgan, hamda sanoat korxonalarini uchun samarali ishlovchi texnika va texnologiyalar yaratilib amaliyotga joriy etilgan.

Biroq, olib borilgan ilmiy-texnik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, grek yong‘og‘i va bodomning qobig‘ini chaqish qurilmasi ish jarayoni sifat ko‘rsatkishlarining parametrlari va ish rejimlariga bog‘liq holda o‘zgarish tavsiflari o‘rganish bo‘yicha etarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos ravishda “Harbiy oziq-ovqat sanoati uchun mahsulotlarni qayta ishlash mashinalarini takomillashtirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oziq-ovqat sanoati uchun quruq mevalarni qobig‘ini chaqish, mag‘izning butunligini saqlash va ish unumdorligini oshirish imkonini beruvchi hamda energiya tejamkor kombinatsiyalashgan qurilma konstruksiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xorijda va respublikamizda ishlab chiqarilayotgan yong‘oq, danak va bodomni chaqish qurilmalarini hamda ish organlarining konstruksiyasi va ish jarayonining tahlili;

yong‘oq, bodom, o‘rik danagi va boshqa qobiqli mahsulotlarni chaqish qurilmasining kombinatsiyalashgan konstruksiyasini ishlab chiqish uchun mahalliy yong‘oq, bodom, o‘rik danaklarining fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganish;

yong‘oq, bodom va danakni chaqish qurilmasini takomillashtirish va ishchi qismlarining parametrlari va ish rejimlarini nazariy tadqiq etish;

takomillashtirilgan konstruksiyali qobiqni chaqish qurilmasini mexanizmlarini ish jarayonini matematik modellashtirish;

takomillashtirilgan chaqish qurilmasi parametrlari va ish rejimlarining maqbul qiymatlarini asoslash uchun tajriba sinovlarini o'tkazish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Respublikada yetishtiriladigan har xil fizik va mexanik xususiyatlarga ega yong'oq, bodom, o'rik danaklaridan butun mag'iz olish jarayonini ta'minlab beruvchi kombinatsiyalashgan chaqish texnologik qurilmasi olingan.

Tadqiqotning predmetini energiyatejamkor kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasining kinematik va texnologik ko'rsatkichlari tashkil etgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish tahlil, nazariy mexanika, matematik statistikaning qonun va qoidalari, fizik-mexanik hamda mavjud me'yoriy hujjatlarda (GOST 32874-2014, GOST 16833-2014) belgilangan usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yong'oq, bodom va danaklarni qobig'ini chaqishga mo'ljallangan qurilmaning ratsional konstruksiyasi ishlab chiqilib, horijda analogi mavjud bo'lmagan yangi ko'p operatsiyali kombinatsion chaqish qurilmasi yaratilgan;

yong'oq, bodom va danaklarni o'lchamiga bog'liq holda rostlovchi mexanizmlardan qisuvchi konusning va juft qovurg'ali vallar oralig'i me'yoriy parametrlari aniqlangan;

kombinatsiyalashgan qurilmani energiya manbaidan yong'oq qobig'ini chaquvchi kulachokgacha harakat uzatish jarayonidagi energiya kuch parametrlari matematik modellashtirilgan va shu model sonli yechimi asosida mexanizmlarni kinematik parametrlari orasidagi bog'liqlik asoslangan;

mayda quruq mevalarni qovurg'ali barabanlar juftligini chaqishi analitik modellashtirildi, bu model keng qamrovli va to'laqonli holda turli geometrik, kinematik, dinamik parametrlarni hisobga olib yozilgan, bunda burchak tezlik ω , barabanlar orasidagi tirqish h_0 , barabanlar ishchi qismining kengligi h , quruq mevaning zichligi ρ va kuch parametrlarining o'zaro bog'liqlik ifodalari olingan, xususan barabanning burovchi momenti M va barabanlar juftligi orasidagi tirqish h_0 bog'lovchi ifoda aniqlangan;

yong'oq qobig'ini chaqishda ilgari tanima-qayma zarba berishdagi zo'riqishni tenzometrlash usulida qobiqning deformatsiyalanish chegarasi va chaqish uchun zarur bo'lgan kuchlar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

kombinatsiyalashgan chaqish texnologik qurilmasi ishlab chiqilgan va ishchi qismlarining parametrlarini hisoblashning usullari takomillashtirilgan;

mahalliy yong'oq, danak va bodomlarning fizik-mexanik xususiyatlarini inobatga olgan holda chaqish qurilmasining kinematik va texnologik parametrlari ishlab chiqilgan;

kombinatsiyalashgan chaqish texnologik qurilmasi uchun mexanik harakatni

uzatuvchi mexanizmlar tanlangan;

kombinatsiyalashgan chaqish texnologik qurilmasining konstruktorlik va texnik hujjatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, qurilmaning parametrlari va ish rejimlarini nazariy jihatdan asoslashda nazariy mexanika va oliy matematika qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika uslublari bilan ishlov berilganligi, olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan yong'oq, bodom va danaklarni chaqish texnologik qurilmasi sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotda joriy etilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati energiya tejankor yangi ko'p operatsiyali kombinatsion chaqish qurilmasi yaratilganligi, rostlovchi mexanizmlardan qisuvchi konusning va juft qovurg'ali vallar oralig'i me'yoriy parametrlari aniqlanib, mexanizmlarni kinematik parametrlari orasidagi bog'liqlik asoslanishi hamda yong'oq qobig'ini chaqishda qobiqning deformatsiyalanish chegarasi, chaqish uchun zarur bo'lgan kuchlar aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kombinatsiyalashgan chaqish texnologik qurilmasi ishlab chiqilganligi va ishchi qismlarining parametrlarini hisoblashning usullari takomillashtirilganligi, mahalliy yong'oq, danak va bodomlarning fizik-mexanik xususiyatlarini inobatga olgan holda chaqish qurilmasining kinematik va texnologik parametrlari ishlab chiqilganligi, kombinatsiyalashgan chaqish texnologik qurilmasi uchun mexanik harakatni uzatuvchi mexanizmlar tanlanganligi, kombinatsiyalashgan chaqish texnologik qurilmasining konstruktorlik va texnik hujjatlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasini takomillashtirish va parametrlarini asoslash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasi "RUHSHONA MED FARM" MCHJda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 06-fevraldagi 07/22-05/457-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yong'oq, o'rik va bodom danaklari uchun chaqish sifatini 90% ga etkazish imkonini bergan;

meva danaklarini chaqish uchun ishlab chiqilgan optimal rejimlar "CHANDIR SAVDO" MCHJ amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 06-fevraldagi 07/22-05/457-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 0,55 kVt elektr energiyasi sarflab, yong'oq mag'zini shikashlanmaslik darajasini 85%, o'rik va bodom mag'zini shikashlanmaslik darajasini 95% gacha etkazish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 5 ta halqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 2 ta foydali modelga patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oziq-ovqat sanoatida yong‘oq, bodom, o‘rik danaklarini qobig‘ini chaqish texnik vositalari va texnologiyasini holati**» deb nomlangan birinchi bobida mavjud texnologik uskunalarning holati va rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, ulardan grek yong‘og‘i, bodom va o‘rik danagini chaqishda foydalanish shartlari tahlil qilingan.

Grek yong‘og‘i va bodomning qobig‘ini chaqish uchun energyatejamkor kombinatsiyalashgan qurilmaning yangi turkumini yaratish uchun mahalliy yong‘oq, bodom va o‘rik navlari hududlar kesimida o‘rganilgan. Yong‘oq, bodom va o‘rik danagini chaqish qurilmalari konstruktiv sxemalarining tahlili amalga oshirilgan. Ilmiy manbalarning tanqidiy tahlili, texnologik jarayon va mashinalarning zamonaviy holatini o‘rganish asosida bugungi kunda oziq-ovqat, parfyumeriya va farmatsevtika sanoatlarini rivojlantirish va sifatli mahsulot yaratishda tobora istiqbolli yo‘nalish yong‘oq, bodom va o‘rik danagini chaqish qurilmalari universal, energyatejamkor, sodda va ko‘p funksiyali jihozlarni izlash zarurati aniqlangan.

Dissertatsiyaning «**Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasi parametrlari va ish rejimlarini nazariy tadqiq etish**» deb nomlangan ikkinchi bobida yong‘oq, bodom va o‘rik danagi mag‘izini qobig‘idan ajratishda ishlatiladigan chaqish qurilmalarini takomillashtirish, ishlab chiqiladigan qurilma konstruksiyasi va ishchi qismlarining parametrlarini nazariy jihatdan asoslashga doir tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida yong‘oq, bodom va o‘rik danaklarining ayrim

navlaridan foydalanilgan. Tadqiqot ob'jektining asosiy tavsiflari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tadqiqot ob'ektlarining asosiy fizik-texnologik tavsiflari

Manba nomi	Navlari	Geometrik ko'rinishi	Texnologik ko'rsatkichlari		Geometrik o'lchamlari, mm
			namligi, %	qobig'ining qalinligi, mm	
Yong'oq	Xumson – 3	Sharsimon	15-20 %	2-2.5	30-34
	Xumson – 5			2-25	30-34
	Parkent – 2			2.5-3.5	28-32
	Ohangaron – 1			1.5-2	28-30
Bodom	Tyan-shan	Ellips	10-15 %	1.5-2	29x25x40
	Yupqa po'choq			0.8-1	30x27x45
	Malika			1-2	35x30x45
	Konsoy			1.5-2.5	28x26x35
O'rik danagi	Subhoniyy	Ellips	10-15 %	1-1.5	19x15x50
	Sinchalak			0.8-1	19x18x40
	Isfarak			1-1.5	21x14x40


1-jadvaldagi ma'lumotlar o'rganilgan tadqiqot ob'ektlarining tavsiflari sezilarli darajada farq qilmasligini ko'rstadi.

2-jadval

Yong'oq, bodom va o'rik danagini chaqishda qo'llaniladigan qurilmalarning umumiy tasnifi

Markasi	Gabarit o'lchamlari $L \times H \times B$ (mm)	Ishlash uslubiyoti	Texnologik tasnifi		Samaradorligi (kg/soat)	Narxi (mln. so'm)
			Mag'iz ezilish darajasi, %	Chaqish to'liqligi, %		
MKO (Rossiya)	800x800x1800	Ezish	5-15	90	120	40
Yong'oq chaqish qurilmasi (Germaniya)	1200x1000x800	Sindirish	8-15	93	200	50
FW (Xitoy)	1200x800x600	Sindirish	5-15	95	180	30
Taklif etilayotgan kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasi	1200x1005x400	zarba berish, sindirish	5-10	95	200 kg yong'oq 180 kg mayda quruq mevalar	15

Olib borilgan tadqiqotlar asosida bir biriga qarama qarshi aylanma harakat qiluvchi qovurg'ali barabanning siqish prinsipida ishlashga asoslangan ikkinchi tomoni qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas yacheykalardan iborat chaqish moslamalaridan tashkil topgan qurilmaning texnologik sxemasi ishlab chiqilgan (1-rasm) va Intellektual mulk agentligining № FAP 02221, № FAP 00559-2009 y foydali modellariga patentlar olingan.




1-bunker, 2- uzatish kanali, 3- torsion val, 4 va 5 ishchi chaquvchi uzellar, 6-tasmali uzatma shkivi, 7-kulachok, 8-chaqilgan yong`oq, 9-bodom va o`rik danagi uchun bunker, 10-me`yorlagich, 11-ishchi barabanlar, 12-shkiv, 13-tishli yulduzcha, 14-zanjirni rostlovchi yulduzcha, 15-tirqishni rostlovchi vint, 16-korpus, 17- chaqilgan mahsulot. 18-19-rostlovchi podshipniklar.

1-rasm. Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasining texnologik sxemasi

Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasi quyidagi tartibda ishlaydi: 1-rasm ko`rinib turibdiki grek yong`og`ini chaqish quyidagi tarzda sodir bo`ladi. Yong`oq 1 bunker orqali 2 kanalga tushadi, bu yerda uch kanaldan yong`oq oldinga harakatlanadi. 3 torsion vali taqsimlagich bittadan yong`og`ini uch kanal bo`yicha 4 va 5 ishchi uzellar orasidagi chaqish zonasiga uzatib beradi. 7 kulachokning zarb kuchi bir vaqtning o`zida uchta yong`oqqa uriladi va chaqilgan yong`oqlar o`z og`irligi bilan yig`uvchi idishga tushadi. Ikkinchi tomonida (o`rik danagi, bodom va b.) chaqish quyidagi tarzda sodir bo`ladi. Bodom yoki o`rik danagi 9 bunkerdan 10 me`yorlagich orqali o`tib 11 ishchi barabanlar orasiga tushadi. Bodom yoki o`rik donalari esa bu barabanlarning tishlari bilan ilashadi va bir vaqtning o`zida siqiladi. 11 ishchi barabanning zarbali va siquvchi kuchlari bodom yoki o`rik danalarini sindiradi. Chaqilgan bodom yoki o`rik donalari o`z og`irligi bilan yig`uvchi idishga tushadi.

Mahalliy yong`oq va bodomlarni fizik-mexanik xossalarini o`rganish maqsadida har xil navlardagi yong`oq va bodomlar tanlab olinib tahlillar o`tkazilgan. Natijada yong`oq va bodomlarning o`rtacha qiymati yong`oqda 33-39 mm, og`irligi 11-12 g, qobiq qalinligi 1-3mm, bodomda 17-21 mm oralig`ida, og`irligi 3-4 g, qalinligi 1-3 mm va namlik darajasi 15-20 % bo`lishi aniqlandi.

Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasi kinematik sxemasi ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasi kinematik sxemasi

Chaʻqish qurilmasi ish unumi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$Q = 1,25\pi D L \alpha n \rho k_{chiq} n_{yach} \quad (1)$$

bu yerda D -baraban diametri, m; l -baraban uzunligi, m; baraban chiqish teshigi kengligi, m; n -baraban aylanishlar chastotasi, s^{-1} , ρ -qayta ishlanadigan yongʻoqning zichligi, kg/m^3 ; k_{chiq} – yongʻoq magʻizining butun, shikastlanmagan miqdorining chiqish koeffitsiyenti, $k_{chiq} = 0,8+0,9$; n_{yach} – baraban yacheykalari soni, dona.

Yongʻoqlarni chaqish uchun sarflanadigan oʻrtacha kuch:

$$(2)$$

bu yerda σ – yongʻoqning siqilishdagi mustahkamlik chegarasi, Πa ; L - barabanning uzunligi, m; l -yongʻoqni chaqish uchastkasidagi yoyning uzunligi, m; μ - qobiqʻni maydalanishda hisobga olinadigan koeffitsiyent, $\mu = 0,3 \div 0,5$; $\lambda = 0,1 - 0,2$ – bir vaqtda maydalanishni hisobga olish koeffitsiyenti.

Chaʻqish qurilmasida yongʻoq qobiqlarini chaqish uchun sarflanadigan quvvat:


$$N_{dv} = 1400 \sigma_s j n L R^2 \quad (3)$$

bu yerda R – baraban radiusi, m.

Olingan ifodaning tahlilidan shunday natija kelib chiqadiki, yuritmaning belgilangan quvvati quyidagi parametrlarga: barabanning radiusi va uzunligiga; barabanning aylanish chastotasiga; maydalanadigan yongʻoqning mustahkamlik xususiyatlariga bogʻliq boʻladi.

Dissertatsiyaning “Takomillashtirilgan qobiq chaqish qurilma konstruksiyasi va ishchi qismlarining parametrlarini asoslash uchun matemanik modellashtirish” deb nomlangan bobida takomillashtirilgan konstruksiyali qobiqni chaqish qurilmasi ishchi organlarini modellashtirish, qurilma ishchi qismlari parametrlari va ish rejimlarini asoslash, quruq mevalarni zarba kuchi bilan chaqish dinamikasini matematik modelini takomillashtirishni nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Tortuvchi – yuritmalni agregatning hisoblangan dinamik modeli qurilmalari unga ko‘p massali tizimga ekvivalent bo‘ladi (3- rasm).



3– rasm. Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmaning uzatuvchi yuritmalari va ishchi organlarining ekvivalent hisoblash sxemasi

Ekvivalent tizim massalarining harakat tenglamasi, potensial va kinetik energiyalarni ifodalash va har bir umumlashgan koordinalar uchun ikkinchi turdagi Lagranj tenglamasi asosida yoziladi.


$$\left\{ \begin{array}{l} J_1 \ddot{\varphi}_1 + k_1(\dot{\varphi}_1 - \dot{\varphi}_2) + c_1(\varphi_1 - \varphi_2) = M_d \\ J_2 \ddot{\varphi}_2 + c_2(\varphi_1 - \varphi_2) = M_{m21} \\ J_3 \ddot{\varphi}_3 + c_3(\varphi_3 - \varphi_4) = M_{m22} \\ J_r \ddot{\varphi}_r + k_r(\dot{\varphi}_3 - \dot{\varphi}_r) + c_r(\varphi_3 - \varphi_r) = M_r \\ J_{o1} \ddot{\varphi}_{o1} + k_{o1}(\dot{\varphi}_r - \dot{\varphi}_{o1}) + c_{o1}(\varphi_r - \varphi_{o1}) = M_{o1} \\ m_u \frac{dv_u}{dt} = M_u - R_{pr} - R_0 \\ J_{sh1} \ddot{\varphi}_{sh1} + k_{sh1}(\dot{\varphi}_r - \dot{\varphi}_{sh1}) + c_{sh1}(\varphi_r - \varphi_{sh1}) = M_{sh1} \\ J_{sh2} \ddot{\varphi}_{sh2} + k_{sh2}(\dot{\varphi}_{sh1} - \dot{\varphi}_{sh2}) + c_{sh2}(\varphi_{sh1} - \varphi_{sh2}) = M_{sh2} \\ J_{m1} \ddot{\varphi}_{m1} + k_{m1}(\dot{\varphi}_{sh2} - \dot{\varphi}_{m1}) + c_{m1}(\varphi_{sh2} - \varphi_{m1}) = M_{m1} \\ J_{s1} \ddot{\varphi}_{s1} + k_{s1}(\dot{\varphi}_{m1} - \dot{\varphi}_{s1}) + c_{s1}(\varphi_{m1} - \varphi_{s1}) = M_{s1} \\ J_{s2} \ddot{\varphi}_{s2} + k_{s2}(\dot{\varphi}_{m2} - \dot{\varphi}_{s2}) + c_{s2}(\varphi_{m2} - \varphi_{s2}) = M_{s2} \\ J_{m2} \ddot{\varphi}_{m2} + k_{m1}(\dot{\varphi}_{s1} - \dot{\varphi}_{m2}) + c_{m1}(\varphi_{s1} - \varphi_{m2}) = M_{m2} \end{array} \right. \quad 3.1 \quad (4)$$

bu yerda, $J_1, J_2, J_3, J_r, J_{o1}, J_{sh1}, J_{sh2}, J_{m1}, J_{s1}, J_{s2}, J_{m2}$ – aylanuvchi detallarning valga nisbatan keltirilgan inersiya momenti: dvigatelniki, ilashish muftasining birinchi va ikkinchi qismlari, reduktorniki, yong‘oq valiniki, 1-chi va 2- chi shkivniki, bodomning 1- chi valiniki, 1–chi va 2-chi zanjirli shesternyalar, bodomning 2-chi vali $c_1, c_2, c_3, c_r, c_{o1}, c_{sh1}, c_{sh2}, c_{m1}, c_{s1}, c_{s2}, c_{m1}$ - tegishli bo‘g‘inning ekvivalent qattiqligi;- tegishli bo‘g‘inining ekvivalent qattiqligi; $k_1, k_r, k_{o1}, k_{sh1}$,

$k_{sh2}, k_{m1}, k_{s1}, k_{s2}, k_{m1}$ - tegishli bo'g'inning dempirlash koeffitsiyenti; $\varphi_1, \varphi_2, \varphi_3, \varphi_r, \varphi_{sh1}, \varphi_{sh2}, \varphi_{m1}, \varphi_{m2}, \varphi_{s1}$ - tegishli bo'g'inning burilish burchagi; $M_d, M_2, M_3, M_r, M_{01}, M_{sh1}, M_{sh2}, M_{m1}, M_{s1}, M_{m2}$ - tegishli bo'g'inning burovchi momentlari; M_{m21} - ilashish muftasi yetakchi diskining momenti; m_u, v_u, M_u - zarb beruvchining massasi, tezligi va momenti; R_{pr}, R_0 - prujina va yong'ochning qarshilik kuchlari.

Shunday qilib, quruq mevalarni chaquvchi (sindiruvchi) kombinirlangan qurilmaning yuklangan kuch mexanizmlaridagi kinetik va kuch parametrlarini aniqlashni matematik modellashtirildi. Bu matematik model turli xil ijrochi mexanizmlarning zaruriy kinematik parametrlarini aniqlashga yordam beradi.

Matematik modelning ish qobilyatini isbotlash uchun dastlabki ma'lumotlar qabul qilindi va tengamalar tizimi Runge Kutta uslubi qabul qilindi va Merrning algoritmik dasturlaridan foydalanib yechildi. Natijada kombinatsiyalashgan mashinaning turli xil mexanizmlardagi tezlik va tezlanishlari grafiklari ishlab chiqildi.



a - tezliklarniki, b – tezlanishlarniki.

4 – rasm. Chiziqli va burchakli tezlik va tezlanishlari grafigi

Rasmlarda kombinatsiyalashgan qurilmadagi har xil mexanizmlarning tezliklari va tezlanishlari, chiziqli va burchakli ko'chishlarning grafigi keltirilgan. Sindiruvchi ilgari lanma – qaytar zarb beruvchining ishlash ta'sirda chiziqli ko'chish bo'yicha harakatlanadi va chiziqli tezlik va tezlanishga ega bo'ladi. Qolgan barcha mexanizmlar aylanma harakatga va shunga mos bo'lgan burchak ko'chishlariga, tezlik va tezlanishlariga ega bo'ladilar.

Quruq mevalarni zarba kuchi bilan chaqish dinamik matematik modelini takomillashtirish qismida qurilmaning kuch mexanizmlarini matematik modellashtirildi. Bu qurilmaning kuch mexanizmlarini matematik modellashtiramiz [31].

$$\left\{ \begin{array}{l} J_{o1}\ddot{\varphi}_{o1} + k_{o1}(\dot{\varphi}_r - \dot{\varphi}_{o1}) + c_{o1}(\varphi_r - \varphi_{o1}) = M_{o1} \\ m_u \frac{dv_u}{dt} = M_u - R_{pr} - R_o \\ (\sigma_{ij})\lambda_{ij} \leq T(\tau) \\ \dot{T}(\tau, \lambda_{ij}) = m\dot{e}_p(\lambda_{ij}) \\ (\dot{e}_{ij}^p) = \int_{\Omega} \dot{e}_p(\lambda^1_{ij})\lambda^1_{ij}d\Omega^1 \end{array} \right. \quad (5)$$

bu yerda, σ_{ij} –noelastik materialning normal kuchlanishi $T(\tau, \lambda_{ij})$ - materialning yemirilish koefitsienti; \dot{e}_{ij}^p -boshlang‘ich mikro kuchlanishlarning tasodifiy tenzori, τ – mahalliy oquvchanlik chegarasi, λ_{ij} – deviator bo‘shlig‘ida yo‘nalishni muqimlovchi, yagona yo‘naltiruvchi deviator, Ω – faol mikroplastik deformatsiyalanishning ko‘paytmasi, $d\Omega$ – differensial shakl (besh o‘lchovli deviator bo‘shlig‘idagi “moddiy burchak”), $\Phi(\tau)$ – mahalliy oquvchanlik chegaralari taqsimlanishining integral funksiyasi.

Ishlab chiqilgan uslubiyot, namunani yemirish uchun talab etilgan zarbalarning soni va energiyasini aniqlash imkonini beradi.

Ko‘p pog‘onali markazga intilma va zarb berish agregatlariga mos holda, yemirilish jarayoni, zarrachalarning otboyka dekasiga erkin urilishiga asoslanadi, zarb sonlaridan tashqari, tegirmonning ishchi kurakchalaridan zarrachalarning uchib chiqishdagi ekvivalent tezligini ham hisoblab chiqish zarurdir:

$$E_{ud} = Mgh = \frac{mV_{ekv}^2}{2} \quad (6)$$

bu yerda, M – zarb beruvchining massasi; m – tadqiq qilinayotgan namunaning massasi; h – zarb beruvchining tushish balandligi; V_{ekv} – markazga intilma tegirmonning kurakchalaridan zarrachalarning uchib chiqish ekvivalent tezligi; E_{ud} – bitta zarbning energiyasi.

Ekvivalent tezlikni aniqlash uchun formulani yozamiz:


$$V_{ekv} = \sqrt{\frac{2Mgh}{m}} \quad (7)$$

Ekvivalent sxema bo‘yicha, yong‘oq qobig‘lariga urilish kuchlarining tenglamalar tizimini tuzamiz (3 - rasm):

$$\left\{ \begin{array}{l} J_{o1}\ddot{\varphi}_{o1} + k_{o1}(\dot{\varphi}_r - \dot{\varphi}_{o1}) + c_{o1}(\varphi_r - \varphi_{o1}) = M_{o1} \\ J_r\ddot{\varphi}_r + c_r\varphi_r = M_r \\ m_u \frac{dv_u}{dt} = M_u - R_{pr} - R_o \\ \frac{dA}{dt} = a \frac{dP_u}{dt} l \\ \frac{dP_u}{dt} = k \frac{dF_o}{dt} \\ \frac{dF_o}{dt} = 6(ad^2 - D^2) \end{array} \right. \quad (8)$$

Stedler bo‘yicha jismning maydalanish (yemirilish) ishi, maydalanish darajasini P_i - yemirish kuchiga va bu kuchning l ta’sir etish yo‘liga ko‘paytmasiga tengdir:

bu yerda, P –yemiruvchi kuch, shartli jismning kesim yuzasiga proporsional bo‘lib, $k=F_0$ ga teng bo‘ladi, k - proporsionallik koeffitsiyenti; F_0 - shartli jismning kesim yuzasi.




5–rasm. Yong‘oqni chaqishda zarb beruvchining harakati



6 –rasm. Kombinatsiyalashgan ko‘p funksiyali qurilmaning umumiy tasviri

Mayda quruq mevalarni qovurg‘ali barabanlar juftligi orasida chaqishni analitik modeli



$$h_{ns} = h_k \left[\frac{1 + \sqrt{1 + \left(\frac{h_n}{h_k}\right)^\delta (\delta^2 - 1)}}{\delta + 1} \right]^{\frac{1}{\delta}} \quad (9)$$

Neytral kesimning qalinligi barabanlar orasidagi elastik deformatsiya vaziyatida vertikal kuchning gorizontaal bosim kuchini aniqlash.

$$P = \frac{ED^2 b \sin \alpha}{H} (-\cos \alpha), \quad \cos \alpha = 1 - \frac{H - h_0}{D}, \quad (10)$$

siqilish deformasiyasi

$$\tau_b = \frac{dP}{dx} h = \frac{h_0}{\sqrt{2Rh_0}} (1 + X^2) \frac{dP}{dX}. \quad (11)$$

Barabanning aylantiruvchi momenti quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\frac{dM}{dx} = \tau_b LR = \frac{h_0}{\sqrt{2Rh_0}} (1 + X^2) LR \frac{dP}{dX} = \tau_b LR = \frac{h_0}{\sqrt{2Rh_0}} (1 + X^2) LR \sqrt{2Rh_0} \frac{dP}{dX} \quad (12)$$

Barabanning quvvati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi: $N_n = 2M\omega$

$$\text{ishqalanish kuchini aniqlash } F_{1tr} = N_1 f_1 = N_1 tg \rho_1, F_{2tr} = N_2 f_2 = N_2 tg \rho_2. \quad (13)$$

Ikki barabanning inersiya momenti

$$M_{c1}^{in} = I_{c1} \varepsilon_1 = \frac{p_1}{2g} r_1^2 \frac{\omega_1}{r_1} \quad M_{c2}^{in} = I_{c2} \varepsilon_2 = \frac{p_2}{2g} r_2^2 \frac{\omega_2}{r_2}$$

$$(N_1 - P_{1d})r \delta_{\varphi_1} + (P_1 - F_{tr1})r \delta_{\varphi_1} - M_{c1}^{in} \delta_{\varphi_1} + M_{dv1} \delta_{\varphi_1} = 0$$


$$(N_2 - P_{2d})r \delta_{\varphi_2} + (P_2 - F_{tr2})r \delta_{\varphi_2} - M_{c2}^{in} \delta_{\varphi_2} + M_{dv2} \delta_{\varphi_2} = 0 \quad (14)$$

Barabanlar juftligini ishining muvozanat tenglamasi. Bu ifodalardan barabanlarning M_{dv} aylantirish momentlarini topish mumkin bo'ladi.


Dissertatsiyaning **“Takomillashtirilgan chaqish qurilmasi parametrlari va ish rejimlarining maqbul qiymatlarini asoslash uchun tajriba sinovlarini o'tkazish va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash”** deb nomlangan bobida takomillashtirilgan yong'oq chaqish qurilmasi parametrlari maqbul qiymatlarini asoslash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Takomillashtirilgan chaqish qurilma parametrlari va ish rejimlarining maqbul qiymatlarini asoslash uchun qurilma ishlab chiqildi (6-rasm).

Tajriba sinov dasturi va uslubiyati ishlab chiqildi. Yong'oq, bodom va o'rik qobiqlarini chaqishda sarflanadigan kuch qiymatini o'rganish uchun yong'oq, bodom va o'rik danaklari bo'yicha tenzometrlash usulidan foydalanildi. 7 va 8 rasmlarda yong'oq danaklarini chaqishda tenzometrlash ma'lumotlari keltirilgan.




7-rasm. Yong'oqni sindirishda kulochokning zarb beruvchiga urilish zo'riqishini tenzometrlash




8-rasm. Yong'oqni sindirishda ilgari lanma-qaytar zarb beruvchidagi zo'riqishini tenzometrlash

Yong'oqni chaquvchi kuch qiymati qobiq qalinligi va kuch qo'yilgan tayanch shakliga bog'liq bo'lib, yarim konus xajmiga joylashuvchi diametri 28-39 mm o'lcham orasidagi yong'oqlar chaqiladi, yupqa qobiqli yong'oqlar uchun 200-300 N, qobig'i o'rtacha qalinlikdagi yong'oqlar uchun 400-500 N, qalin qobiqli yong'oqlar uchun 800-900 N kuch bo'lishi tenzometrik aniqlandi.

Qurilma ishchi barabanlar diametri, burchakli tezligini, qurilma qisish masofasini yong'oq, o'rik danagi va bodomning chaqilish to'liqligi, ezilish darajasi va mag'izni sifat ko'rsatkichlariga ta'siri, ishchi baraban aylanishlar sonini qurilma ish ko'rsatkichlariga ta'sirini va qurilmaning chaquvchi kuchini uning ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish natijalari grafiklar korinishida ishlab chiqildi (9 va 10-rasmlar).



9-rasm. Yong'oqning chaqilish to'liqligi (Ch) ni, ezilish darajasi (E) ni va mag'izni sifat ko'rsatkichi (S) ni chaquvchi kuch (F) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari



10-rasm. O'rik danagi va bodomning chaqilish to'liqligi (Ch) ni, ezilish darajasi (E) ni va mag'izni sifat ko'rsatkichi (S) ni chaquvchi kuch (F) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari

Ekspirimentlar shuni ko'rsatdiki, uzunligi 23 mm, eni 13 mm, qobig' devorchasining qalinligi 0,8 - 1mm, qobig' tutashuvi eni 3,5-5 mm, massasi 1-1,5g bo'lgan o'rik danagini chaqishda uning sinishi 45 - 130 kN kuch ta'sirida sodir bo'ldi, yuklanishning o'rtachasi 90 Nm, zo'riqish 900 Nm ko'rinishida bo'ldi.

O'tkazilgan eksperimentlarning o'rtacha ma'lumotlari ko'rsatkichlari bo'yicha shuni tasdiqlash mumkinki, danakning ichi bo'sh tomonidan chaqishda,

uning tutashuv tomonidan chaqishga nisbatan 1,5-2-marta ortiqcha yuklama talab etiladi.

Bodom danagini chaqishda (uzunligi 20-35mm, eni 8-15 mm, qobig' devorchasining qalinligi 1-2,5 mm, qobig' tutashuvi eni 3,5–5 mm, massasi 0,5-1,5 g), danakka bo'lgan siquvchi va zarb beruvchi kuch tajribaning har 2,5 sekundida 17–45Nm da sodir bo'ldi, yuklanishning o'rtachasi 30 Nm, zo'riqish 300 Nm ko'rinishida bo'ldi.

Kombinatsiyalashgan chaqish qurimasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkishlarini aniqlashda chaqish qurilmasi tajriba nusxasining qisqacha texnik tavsifi, xo'jalik sinovlari natijalari va uning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan. Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasi 200 kg/soat yong'oq va 180 kg mayda quruq mevalarni chaqish samaradorlikda ishlab, inson qo'l mehnatini bir-necha barobarga yengillashtirish va amaldagi chaqish qurilmalariga nisbatan 20 % ga unumdorligi yuqori va bitta qurilmadan oyiga 9 mln so'm iqtisodiy samara olish imkonini berdi.

XULOSA

“Grek yong'ogi va bodomning qobig'ini chaqish uchun energiyatejamkor kombinatsiyalshgan qurilmani ishlab chiqish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Yong'og va bodom qobig'ini chaqish qurilmalari ishchi organlarini tahlil qilish natijasida grek yong'ogi va bodomning qobig'ini chaqish uchun energiyatejamkor kombinatsiyalshgan qurilma konstruksiyasini ishlab chiqilgan va kombinatsiyalshgan chaquvchi qurilma konstruksiyasini yaratish imkonini berdi.

2. Maxalliy yong'oq va bodomlarni geometrik o'lchamlari o'rganildi va uning natijasida ilgarilama-qaytma harakat qiluvchi yarim konus vertikal o'qqa nisbatan $8-11^{\circ}$ bo'lishligi aniqlandi xamda qurilmaga bir nechta qator chaqish moslamasini joylashtirish unumdorlikni bir necha karra oshirish imkoni berdi.

3. Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasining chaqish jarayonini matematik modellashtirish qurilma geometrik, kinematik va dinamik parametrlarini aniqlash imkonini berdi.

4. Yong'oqni chaquvchi kuch qiymati qobiq qalinligi va kuch qo'yilgan tayanch shakliga bog'liq bo'lib, yarim konus xajmiga joylashuvchi diametri 25-35 mm o'lcham orasidagi yong'oqlar chaqilishi va yupqa qobiqli yong'oqlar uchun 200-300 N, qobig'i o'rtacha qalinlikdagi yong'oqlar uchun 400-500 N, qalin qobiqli yong'oqlar uchun 700-800 N kuch bo'lishi tenzometrik aniqlash imkonini berdi.

5. Eksperimentlar natijalari uzunligi 23 mm, eni 13 mm, qobig' devorchasining qalinligi 0,8 - 1mm, qobig' tutashuvi eni 3,5–5 mm, massasi 1-1,5g bo'lgan o'rik danagini chaqishda uning sinishi 45 – 130 kN kuch ta'sirida sodir bo'ldi, yuklanishning o'rtachasi 90 Nm, zo'riqish 900 Nm ko'rinishida bo'ldi xamda danakning ichi bo'sh tomonidan chaqishda, uning tutashuv tomonidan chaqishga nisbatan 1,5-2-marta ortiqcha yuklama talab etilishini ko'rsatdi.

6. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasi belgilangan texnologik ish jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko'rsatkichlari texnik topshiriqqa to'liq mos keladi.

7. Kombinatsiyalashgan chaqish qurilmasi 200 kg/soat yong'oq va 180 kg mayda quruq mevalarni chaqish samaradorlikda ishlab, inson qo'l mehnatini bir-necha barobarga yengillashtirish va amaldagi chaqish qurilmalariga nisbatan 20 % ga unumdorligi yuqori va bitta qurilmadan oyiga 9 mln so'm iqtisodiy samara olish imkonini berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/28.02.2022.Т.101.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

АКАДЕМИЯ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЮНУСОВ БАХТИЁР АБДУЛЛАЕВИЧ

**РАЗРАБОТКА ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩЕЙ КОМБИНИРОВАННОЙ
УСТАНОВКИ ДЛЯ РАЗЛАМЫВАНИЯ ОБОЛОЧКИ ГРЕЧЕСКОГО
ОРЕХА И МИНДАЛЯ**

**02.00.16 – Процессы и аппараты химической технологии
и пищевых производств**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент - 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.1.PhD/T 3451

Докторская диссертация выполнена в Академии Вооруженных сил Республики Узбекистан. Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)), на веб-странице института научного совета (www.bmti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» www.ziynet.uz.

Научный руководитель:

Матмуродов Фарход Маткурбоневич
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Баракаев Нусратилло Ражабович
доктор технических наук, профессор

Гафуров Карим Хакимович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится «25» июня 2024 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 при Бухарском инженерно-технологическом институте по адресу: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазаева, дом 15. Тел.: (+99865)223-74-84, факс: (+99865)223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрированного за №467). (Адрес: 200117, г.Бухара, ул. К. Муртазаева 15. Тел.: (+99865)223-78-84).

Автореферат диссертации разослан «08» июня 2024 года.
(реестр протокола рассылки №6 от «12» марта 2024 г.).



С.Ф. Фозилов

Заместитель председателя научного совета по присуждению учёных степеней д.т.н., профессор

Р.Р. Хайитов

Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., старший научный сотрудник

И.Б. Исабаев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире ускоренно развиваются процессы механизации и автоматизации. Многие ученые проводят исследования по созданию новой техники и технологий, направленных на сокращение ручного труда человека, производство и переработку высококачественной продукции. Сельское хозяйство является одним из перспективных источников укрепления экспортного потенциала страны, наряду с удовлетворением потребности населения нашей страны в продуктах питания, потребности перерабатывающей промышленности в качественном сырье. Ежегодно в нашей республике производят грецкие орехи (157,2 тыс. тонн), миндаль (79329,25 тонн) и косточки фруктов. Орехи, миндаль и косточки абрикоса содержат до 60% масла и широко используются в пищевой, парфюмерной и фармацевтической промышленности. В пищевой промышленности важное значение имеет производство высокопроизводительных и энергоресурсосберегающих устройств и оборудования для переработки урожая созданных интенсивных ореховых, миндальных, абрикосовых и персиковых садов в масштабах республики.

В мире проводятся научно-исследовательские работы с целью повышения эффективности технологического оборудования для производства и переработки высококачественной продукции, разламывания скорлупы орехов, миндаля и абрикосовых косточек, разделения косточек и улучшения конструкции оборудования для разламывания. В соответствии с этим, совершенствование конструкции высокоэффективного комбинированного разламывающего устройства, ускорение практически выполняемого процесса и уменьшение затраты энергии, внедрение в практику новой технологии считается важной задачей.

В республике достигаются научные результаты по модернизации комбинированных разламывающих устройств, внедрению современного, высокоэффективного, энергоэффективного и малозатратного оборудования, в том числе энергосберегающего комбинированного разламывающего устройства, с целью увеличения объема и качества выпускаемой продукции и снижения энергопотребления оборудования. В стратегии развития Нового Узбекистана отмечены важные задачи "... широкого внедрения инновации в экономике, развития связи кооперации промышленного предприятия и научных учреждений"¹. Соответственно, важное значение приобретают научные и практические исследования, направленные на создание

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

высокоэффективного энергоэффективного комбинированного оборудования для разламывания и расширение области устойчивой работы оборудования.

На основе ПП-3025 Президента Республики Узбекистан от 1-го июня 2017 года «О создании ассоциации экспорта, производства ореха и организации их деятельности» в республике в 2017 году организована ассоциация экспорта и производства ореха.

Международная промышленность по выращиванию и переработке орехов характеризуется самой высокой картиной роста по сравнению с другими видами промышленности за последние десятилетия. За последние десять лет мировое производство грецких орехов выросло на 40%, а объем продаж увеличился на 116%. Резко возрос спрос на грецкие орехи как на наиболее важный альтернативный источник ключевых физиологически активных соединений.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных указами Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана, предназначенного на 2022-2026 годы», УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года» и Постановления Президента Республики Узбекистан ПП-307 от 6 июля 2022 года «О мерах практической организации стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы», а также другие нормативно-правовые документы служат основой для выполнения задач рассмотренной деятельности данной диссертационной исследовательской научной работы.

Соответствие исследований основным приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики В «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. В Республике и за рубежом с разработкой методов и устройств по разламыванию сердцевин грецких орехов, миндаля, абрикосовых косточек, персиковых косточек, фундука и их теоретических и практических основ занимались С.И.Невзоров, М.Ф.Ямалетдинова, Роберт Лемос, М.А.Койунси, Т.Лианг, М. Ндукву, С. Гарибзахеди, С. З. Хусейн, С. Г. Чжао, А. Мохтари Нахал, А. Гафари, С. Оджоло, Цао Ченгмао, Фарог Шарифян, Н. В. Бышов, Ю. И. Сухоруких, Ф. Бумер, В. К. Петров, Б. Гасанов, А. Абдурасулов, Д. Толаев, Х. Туркменов, А. Хуррамов, И. Аширбеков, Д. Алижанов, О. Мирзаев и другие ученые.

Машины и устройства, созданные на основе результатов данных исследований, используются в сельскохозяйственном производстве с определенными положительными результатами. Однако в этих

исследованиях не изучены особенности изменения параметров и режимов работы, показателей качества работы разламывания грецких орехов и миндаля.

Связь темы диссертации с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках плана научно-исследовательских работ на 2021 и 2023 годы в Академии Вооруженных сил Республики Узбекистан.

